

MUHAMMAD YUSUF

O'zbekistanim



«O‘ZBEKNAVO» MILLIY ESTRADA BIRLASHMASI
MUHAMMAD YUSUF NOMIDAGI ADABIY-IJTIMOIIY FOND
O‘ZBEKISTON BASTAKORLAR UYUSHMASI

O‘ZBEKISTONIM

*Muhammad Yusuf she'rlariga bastalangan
qo'shiqlar to'plami*

Toshkent
«ADIB»
2014

UO‘K 821.512.133-1
KBK 84(50‘)7
M 96

*To‘plam O‘zbekiston xalq shoiri
Muhammad Yusuf tavalludining
60 yilligiga bag‘ishlanadi*

Mas‘ul muharrir:
IQBOL MIRZO – O‘zbekiston xalq shoiri

Musiqa muharriri:
RUSTAM ABDULLAYEV – O‘zbekiston Respublikasi
san‘at arbobi, professor

To‘plovchi va nashrga tayyorlovchi:
NAZIRA AS-SALOM

O‘zbekiston xalq shoiri Muhammad Yusuf qalamiga mansub she‘rlar asosida yaratilgan qo‘shiqlar kirib bormagan xonadon, bu mo‘jizadan bahramand bo‘lmagan ko‘ngil topilmasa kerak.

Yil sayin shoirimizning ijodiga qiziqish ortib borayotgani, san‘atkorlar uning she‘rlariga qayta-qayta murojaat etayotgani bois ushbu to‘plamga ehtiyoj tug‘ildi.

Kitobdan joy olgan qo‘shiqlar taniqli xonandalar tomonidan ijro etilib, xalqimizning ma‘naviy xazinasidan joy olgan asarlar bo‘lib, san‘at yo‘nalishidagi ta‘lim muassasalari o‘quvchilari hamda san‘atsevar omma uchun mo‘ljallangan.

O‘zbekistonim. To‘plovchi va nashrga tayyorlovchi: Nazira as-Salom. – Toshkent: «Adib» nashriyoti, 2014. – 112 b.

SO‘Z BOSHI

Nazm va navoning uyg‘unligi qo‘shiq va ashulaning yaralishiga olib keladi. Xalq qalbidan joy olgan, uning his-tuyg‘usi va kechinmalarini kuylaydigan, mustaqil diyor va ona Vatanni madh etadigan, mushtipar ona va oqil farzandlar siymosini gavdalantiradigan jozibali qo‘shiqlarni yaratishda Muhammad Yusuf alohida o‘rin tutadi.

O‘zbekiston xalq shoiri, betakror iste‘dod sohibi Muhammad Yusuf qisqa hayot va ijod yo‘lini bosib o‘tgan bo‘lsa-da, o‘zining samimiy, diltortar she‘rlari bilan mustaqil diyorimiz tarixida o‘chmas iz qoldirdi. Shoir har bir she‘rida vatandoshlarining orzu-umidlari, ular qalbining tub-tubida saqlanib turgan go‘zal hislarini ifodalaydi, Vatanning betakror tabiatini madh etadi. Har bir misra, har bir so‘zni avvalo o‘z yuragidan o‘tkazib, so‘ng qog‘ozga tushiradi. Shoirning she‘rlari aynan mana shu jihatlari bilan o‘quvchi qalbiga singib borib, uni o‘ylashga, borliqning go‘zalligini to‘liq his etishga undaydi. Muhammad Yusuf yaratgan she‘rlar o‘zining badiiy xususiyati, ohangdorligi, serjiloligi, qolaversa, xalqchilligi bilan xonanda hamda bastakorlarning diqqat-e‘tiborini jalb etdi va go‘zal qo‘shiqlarga aylanib xalq orasida keng ommalashdi. Taniqli xonandalarimiz tomonidan ijro etilgan “Vatan”, “Ulug‘imsan, Vatanim”, “Navro‘zim”, “Ko‘klamoyim”, “Do‘lana” kabi qo‘shiqlarini bilmaydigan, ularni sevib xirgoyi qilmaydigan o‘zbek topilmasa kerak.

Bastakorlarimiz Muhammad Yusufning nazmiga murojaat etib, mehr-muhabbatga boy, milliy va vatanparvarlik ruhiga yo‘g‘rilgan eng sara qo‘shiqlarni yaratadilar. Bularga vatanparvarlik ruhidagi “Ulug‘imsan, Vatanim”, “O‘zbekiston”, “Vatanni seving”, “Ey, aziz Vatan”, harbiy vatanparvarlik ruhidagi “Alpomishlar yurti”, “Askar maktubi”, “Posbonlarmiz”, uyg‘onish va yasharish fasli bahorga bag‘ishlangan “Navro‘zim”, “Ko‘klamoyim”, “Binafsha”, “Do‘lana”, sevgi-muhabbatni tarannum etuvchi “Dilorom”, “Yur, muhabbat”, “Yonimda qol”, “Kechagina” va boshqa mavzulardagi qo‘shiqlari fikrimizni tasdiqlaydi. Shoir nazmiga yozilgan qo‘shiqlar O‘zbekiston teleradiokompaniyasining “Oltin fondi”da saqlanmoqda.

Qo‘shiqlar matnida ularning ohangdorligini oshirish, ta‘sirchanligini kuchaytirish, ijro talablariga moslashtirish maqsadida, o‘z paytida Shoirning roziligi olinib, ba‘zi bir o‘zgartishlar amalga oshirilgan. Xonanda va musiqiy san‘at yo‘lida izlanayotgan yoshlarga qulay bo‘lishi uchun kitobda qo‘shiqlarning kuy bastalangan matnini berishni lozim topdik.

“O‘zbekistonim” to‘plamidan o‘rin olgan qo‘shiqlar M.Yusuf ijodining bir bo‘lagini tashkil etadi. Shoirning she‘rlari hali ko‘p zamonlar o‘rganiladi, hali ko‘plab qo‘shiqlar yaratiladi va kelajak avlodlarimizning ma‘naviy olamini kengaytirishga xizmat qiladi.

Rustam Abdullayev

O‘zbekistonda Respublikasi san‘at arbobi,
Davlat mukofoti sovrindori, professor

ULUG'IMSAN, VATANIM

S. Nazarxon musiqasi

Andante

pp
legato

Men dun - yo - ni ni - ma qil - dim, O' - zing yo - rug' ja - ho - nim.

O' - zim - ga bek, o' - zim sul - ton, Sen tax - ti Su - lay - mo - nim Yol - g' i - zim, ya - go - nam dey - mi,

To - pin - gan ko - sho - nam dey - mi, O' - zing me - ning u - lug' - lar - dan U - lu - g' im - san.

1.2.

3.

U-lu-g'im-san, Va-ta-nim, Sho-don ku-nim gul ot-gan

sen, No-lon ku-nim yu - - - pat-gan sen. Yu-zing bo-sib yu-zim-

ga, Sing-lim dey-mi, o-nam-mi, U-lu-g'im-san, Va-ta-nim, o'zing-

san. Sen shox-la-ri os-mon - - - lar-ga, Te-gib tur-gan chi-no-

⊕

rim, o'-zing - san, O - ta de - sam, qi - zim deb, Bosh e - gib tur - gan o' -

zing, U - lu - g'im - san, Va - ta - nim.

Kim Qash - qar - ni qil - di ma - kon, Kim E - na - soy to - mon - da

Ja - lo-lid-din Kur-dis-ton-da, Bo-bu - ring Hin-dis-ton - da. Bu qan-day yuz qa-ro - lig' deb,

Yo - tar - lar zi - mis-ton-da, Tar-qab ket-gan to'q-son ol - ti U - ru-g'im-san, Va - ta - nim.

Qi - zim, de-sang os-mon-lar-ga G'i-rot bo' - lib uch-gay-man, G'i-chir-g'i-chir ti-shim-da-gi

So' - li - g'im-san, Va - ta - nim. Sho-don ku - nim gul deb, Bosh e - gib tur-gan o' -

zing, U - lu-g'im - san, Va - ta - nim.

trm trm trm trm

Sho - don ku - nim gul ot - gan sen, No - lon ku - nim yu - pat - gan

sen. Yu-zing bo - sib yu-zim - ga, Sing- lim dey - mu, o - nam - mi. U - lu-g'im- san, Va - ta -

nim, o' - zing - san. Sen shox - la-ri os - mon - lar - ga, Te-gib tur-gan chi-no-

rim, o' - zing - san, O - ta de-sam, qi-zim deb, bosh e - gib tur-gan o' -

zing, U - lu-g'im- san, Va - ta - nim. Sho-don ku - nim gul



Bu tanishuv parchasidir. Asarning to'liq versiyasi <https://kitobxon.com/uz/asar/268> saytida.

Бу танишув парчасидир. Асарнинг тўлиқ версияси <https://kitobxon.com/uz/asar/268> сайтида.

Это был ознакомительный отрывок. Полную версию можно найти на сайте <https://kitobxon.com/ru/asar/268>